

FINTEX XIZMATLARINING XALQARO BOZORLARDAGI AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

PhD, dots. **Karimova Xulkar**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

ORCID: 0000-0002-8605-5226

xkarimova@uwed.uz, hulkarkarimova24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy moliyaviy texnologiyalar – fintex xizmatlarining xalqaro bozorlardagi o'рни va rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Muallif raqamli iqtisodiyot sharoitida fintex texnologiyalarining vujudga kelishi, ularning global miqyosda tarqalish sabablari va moliyaviy xizmatlar sohasiga ko'rsatgan ta'sirini yoritadi. Maqolada turli mintaqalarda (Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani, LAMEA) fintex xizmatlarining rivojlanish xususiyatlari hududiy tahlil asosida ko'rib chiqilgan. PayPal, Stripe, Revolut, Ant Group kabi yirik fintex kompaniyalari faoliyati misolida raqamli to'lovlar, ochiq bank tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlarning kengayib borayotganligi ta'kidlanadi. Statistik ma'lumotlar va xalqaro tajribalar asosida fintex xizmatlarining asosiy afzalliklari sifatida tezkorlik, xarajatlarning kamayishi, moliyaviy inklyuziya va innovatsion mahsulotlar taklifi ajratib ko'rsatiladi. Xulosasida fintex sohasining kelajakdagi istiqbollari, uni rivojlantirishda texnologik innovatsiyalar va davlat regulyatorlari o'rtasidagi hamkorlik zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu maqola bank sektori, moliyaviy xizmatlar bozori va iqtisodiy raqamlashtirish jarayonlarida ishtirok etayotganlar uchun amaliy va nazariy jihatdan foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: fintex, online banking, raqamlashtirish, mobil bank, blokchain.

ЗНАЧЕНИЕ ФИНТЕХ-УСЛУГ НА МЕЖДУНАРОДНЫХ РЫНКАХ И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ

PhD, доц. **Каримова Хулкар**

Университет мировой экономики и дипломатии

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и тенденции развития современных финансовых технологий — финтех-услуг на международных рынках. Автор освещает появление финтех-технологий в условиях цифровой экономики, причины их глобального распространения и влияние на сферу финансовых услуг. В статье на основе регионального анализа рассматриваются особенности развития финтех-услуг в различных регионах (Северная Америка, Европа, Азиатско-Тихоокеанский регион, LAMEA). На примере деятельности крупных финтех-компаний, таких как PayPal, Stripe, Revolut, Ant Group, подчёркивается расширение цифровых платежей, открытого банковского обслуживания, технологий блокчейн и сервисов на основе искусственного интеллекта. На основе статистических данных и международного опыта выделены ключевые преимущества финтех-услуг: высокая скорость, снижение издержек, финансовая инклюзия и предложение инновационных продуктов. В заключении подчёркивается перспектива дальнейшего развития финтех-сектора, а также необходимость сотрудничества между технологическими инновациями и государственными

регуляторами. Статья представляет как теоретический, так и практический интерес для специалистов банковского сектора, участников рынка финансовых услуг и процессов цифровизации экономики.

Ключевые слова: финтех, онлайн-банкинг, цифровизация, мобильный банк, блокчейн.

THE IMPORTANCE OF FINTECH SERVICES IN INTERNATIONAL MARKETS AND THEIR DEVELOPMENT TRENDS

PhD, assoc. prof. **Karimova Khulkar**
University of World Economy and Diplomacy

Abstract. This article analyzes the role and development trends of modern financial technologies — fintech services — in international markets. The author highlights the emergence of fintech technologies in the context of the digital economy, the reasons for their global expansion, and their impact on the financial services sector. Based on a regional analysis, the article examines the specific features of fintech development in various regions (North America, Europe, the Asia-Pacific region, and LAMEA). Using the examples of major fintech companies such as PayPal, Stripe, Revolut, and Ant Group, the article emphasizes the expansion of digital payments, open banking, blockchain technologies, and services based on artificial intelligence. Drawing on statistical data and international experience, the article identifies the key advantages of fintech services, including high speed, cost reduction, financial inclusion, and the provision of innovative products. The conclusion highlights the prospects for further development of the fintech sector and the need for cooperation between technological innovation and state regulators. The article is of both theoretical and practical interest for banking professionals, participants in the financial services market, and those involved in the digitalization of the economy.

Keywords: fintech, online banking, digitalization, mobile banking, blockchain.

Kirish.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jamiyat hayotiga yangi axborot texnologiyalarning keng joriy etilishini nazarda tutadi, uning asosiy natijasi esa axborot almashinuvining tezlashuvi bo'lib, u yangi turdagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy mahsuloti va harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi allaqachon bir necha o'n yillik tarixga ega. XIX asrdan boshlab elektron hisoblash mashinalari va ular bilan bog'liq texnologiyalar sezilarli darajada rivojlanib, insoniyat tarixi nuqtai nazaridan nihoyatda tez sur'atda o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu texnologiyalar inqilobi fintex tushunchasi kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Fintex bugungi kunda moliyaviy texnologik sanoat bo'lib, u o'zining dastlabki bosqichlaridan chiqib, sezilarli darajada kengaydi. Fintex obyektlari faqatgina startaplar bo'lmay, balki keng operatsion imkoniyatlar, to'liq mahsulotlar to'plami va global qamrovga ega professional tarzda boshqariladigan kompaniyalarga aylandi. Hozirgi Internet davrida, mintaqalar va qit'alar bo'ylab axborot oqimlarining tarqalishida fintex xizmatlarining butun dunyo bo'ylab tarqalishini, integratsiyasini talab etadi. Butun jahon bo'ylab zamonaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etishda ilg'or axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanuvchi kompaniyalar bunda o'z yechimlarini taqdim eta oladilar. Fintex texnologiyalari bozori zamonaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etish uchun moliya va texnologiyaning uyg'unlashuvi orqali an'anaviy moliyaviy faoliyatni ilg'or raqamli vositalar bilan birlashtiradi va uni xalqaro bozorlarga olib chiqa oladi.


Adabiyotlar sharhi.

Fintex global miqyosda innovatsion moliyaviy xizmatlar rivojiga strategik turtki bermoqda. Arner, Barberis va Buckley (2015) fintexni “moliyaviy xizmatlar va axborot texnologiyalarining yangi ittifoqi” sifatida ta’riflaydi. Frost (2020) esa mamlakatlarda fintech qabul qilinishini iqtisodiy sharoitlar, mos regulyatorlik va yosh demografiya bilan bog’liq holda tushuntirib, moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishini ta’kidlaydi. Puschmann (2017) decentralizatsiyalashgan moliya (DeFi) texnologiyalari va blokcheynning o’sib borayotgan ahamiyatiga urg’u beradi. “Technovation” (2023) jurnalidagi tadqiqotda fintech startaplari bank xizmatlariga qo’shimcha innovatsion imkoniyatlar yaratishi qayd etilgan.

Markaziy Osiyoda fintech endi shakllanayotgan bo’lsa-da, ijobiy o’sish imkoniyatlari katta. Abdurahmonov (2022) islomiy fintech mintaqada moliyaviy demokratiyalashuvni rag’batlantirayotganini ko’rsatadi. Nozimova (2024) O’zbekistonda fintech moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o’sishga sezilarli ta’sir qilganini tahlil qiladi. Allayarov va Ravshanova (2024) fintech startaplarining innovatsiya va xavfsizlik barqarorligiga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi. Shu tariqa, global va mintaqaviy tajriba fintech xizmatlarining kelajakda ham moliyaviy tizimlarda asosiy o’rin egallashini ko’rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlillar jarayonida terminologik tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan hamda tizimli, senariyli va indikativ yondashuvlardan foydalanildi.



1-rasm. Regulyator tomonidan boshqariladigan tashabbuslarning fintex sanoati faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashdagi samaradorligi¹

1-rasmdagi so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, insurtech (raqamli sug'urta texnologiyalari) hamda raqamli bank va jamg'arma fintech kompaniyalari regulyativ muhitga nisbatan ijobiyroq baho berishgan. Ushbu sohalaridagi fintech kompaniyalarning 70% dan ortig'i regulyatsiyani yetarli deb hisoblagan, bu esa global o'rtacha ko'rsatkich bo'lgan 63% dan yuqoridir. Bu holat ularning mahsulotlari bank va sug'urta sohalaridagi mavjud regulyatsiyalar bilan ko'proq mos kelishi va yangi yoki qayta moslashtirilgan regulyativ tizimlarga ehtiyoj kamroq bo'lishi bilan izohlanishi mumkin.

¹ https://www3.weforum.org/docs/WEF_The_Future_of_Global_Fintech_2024.pdf

Boshqa tomondan, raqamli kreditlash (digital lending) bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar regulatsiya borasida turlicha tajribalar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu sohaga tegishli fintechlarning 60% regulatsiyani yetarli va mos deb hisoblasa-da, ulardan sezilarli qismi regulativ muhitni ortiqcha yoki juda cheklovchi deb baholagan. Bundan tashqari, ushbu vertikalda regulatsiyaning noaniq, ammo zarur ekanini his qilgan kompaniyalar ulushi eng yuqori bo'lib, 8% ni tashkil etgan (boshqa vertikalarda bu ko'rsatkich 4% yoki undan past). Bu esa raqamli kreditlash sektori regulatorlar uchun muammolar tug'dirishi mumkinligini, ular asosan risk va haddan tashqari qarzdorlik (over-indebtedness) masalalariga e'tibor qaratishini hamda dunyo bo'ylab ushbu kompaniyalarning regulativ talablari farqlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

E'tiborga molik jihati shundaki, raqamli to'lov xizmatlari (digital payments) sohasi regulatsiyani o'z faoliyati uchun yetarli va mos deb topgan fintechlar ulushi bo'yicha eng past natijaga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 57% ni tashkil qilgan. Shuningdek, sohadagi kompaniyalarning 12% regulativ muhitni yetarli emas deb hisoblagan, yana 17% esa regulatsiyani ortiqcha yoki juda cheklovchi deb baholagan.

Bizda bir savol tug'iladi, fintex xizmatlarining xalqaro bozorlardagi ahamiyati qanday? Bugungi davrda fintexning asosiy tendensiyalari bo'lgan mobil to'lovlarning ko'payishi, blokcheyn va kriptovalyutalardan foydalanish, ochiq bank xizmatlarining rivojlanishi, sun'iy intellekt va BIG data, axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi shuningdek, shaxsiylashtirilgan va avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarning paydo bo'lishi, moliyaviy sektorning samaradorligini oshirish, uning hamma uchun ochiqligini ta'minlash va mijoz tajribasini yaxshilashga qaratilgan barcha jarayonlar fintexning xalqaro bozordagi ahamiyatini oshiradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fintex xizmatlarining xalqaro bozordagi ahamiyatini hududiy tahlil qiladigan bo'lsak: Shimoliy Amerikadagi fintex texnologiyalari bozori moliyaviy xizmatlarda texnologiyadan ko'p foydalanadi, masalan, raqamli to'lovlar, blokcheyn va sun'iy intellekt (AI). Mintaqadagi asosiy tendensiyalarga mobil to'lovlarning ommalashuvi, fintex startaplariga sarmoyalar ortishi va an'anaviy moliyaviy institutlar bilan fintex kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik keng rivojlangan. Bularga misol qilib - **PayPal, Square va Stripe dasturlarini keltirish mumkin.**

Yevropani olib qaraydigan bo'lsak u yerdagi fintex texnologiyalari bozori moliyaviy xizmatlarda ilg'or texnologik taraqqiyotlarni o'z ichiga oladi, masalan, ochiq bank xizmatlari (open banking), regtex (regulativ texnologiyalar) va insurtext (sug'urta texnologiyalari). Mintaqadagi asosiy tendensiyalar qatoriga raqobatchi banklarning moliyaviy texnologiyalar asosida o'z xizmatlarini kengaytirishi, va innovatsion to'lov yechimlarining paydo bo'lishini ko'rish mumkin. Bular misolida **Revolut, Adyen va TransferWise kompaniyalari fintex xizmatlarini taklif qilayotganini ko'rish mumkin.**

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ham mobil to'lovlar, raqamli hamyonlar va P2P (peer-to-peer) kreditlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Mintaqadagi asosiy tendensiyalar sifatida – mobil bank xizmatlarining tez sur'atlarda rivojlanishi, fintexga asoslangan ilovalarning paydo bo'lishi va xalqaro tranzaksiyalar uchun blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi kuzatish mumkin. Bularga misol sifatida **Ant Group (Alibaba), WeChat Pay va Paytm² dasturlarini keltirib o'tamiz.**

LAMEA (Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Afrika) mamlakatlari asosiy tendensiyalar qatoriga mobil bank xizmatlari va raqamli hamyonlarning kengayishi, bank xizmatlaridan foydalanmaydigan aholiga esa islomiy fintex xizmatlarini taqdim etuvchi dasturlarni yaratilishini keltirish mumkin. Ushbu mintaqada yetakchi ishlab chiqaruvchilar – **PagSeguro, PayU va Fawry³.**

² <https://paytm.com/>

³ <https://aws.amazon.com/marketplace/pp/prodview-ycg5do6fypiju#overview>

Xalqaro tajribalardan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yil pandemiyadan so'ng fintex xizmatlarining xalqaro bozordagi ahamiyati yanada oshdi. PayPal va Visa raqamli to'lov tajribasini yaxshilash maqsadida hamkorlik qilishdi. Ushbu hamkorlik PayPal va Venmo to'lov xizmatlarining Visa'ning global savdo tarmog'ida qabul qilinishini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, Visa kartalaridan foydalanuvchi mijozlar uchun ushbu tizimdagi tranzaksiyalarini yanada qulay va oson qilishga yordam berdi. Stripe va Salesforce kompaniyalari esa 2020-yil sentyabr oyida Stripe bulutli CRM kompaniyasi bo'lgan Salesforce bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Ushbu hamkorlik natijasida "Stripe"ning to'lov imkoniyatlari Salesforcening Commerce Cloud tizimiga integratsiya qilindi. Bu bizneslarga CRM platformasi ichida to'lovlarni oson qabul qilish va boshqarish imkoniyatini taqdim etdi.⁴


Yuqoridagi hududiy tahlillar asosida fintex xizmatlari xalqaro bozorda quyidagi muhim afzalliklarga ega ekanligini ko'rish mumkin:

Birinchidan, keng qamrov va kirish imkoniyati – fintex kompaniyalari uzoq hududlarda yashovchi insonlarga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. An'anaviy bank xizmatlariga kirish qiyin bo'lgan hududlarda raqamli bank va elektron hamyon xizmatlari aholiga katta yengillik beradi.

Ikkinchidan, tezkor va samarador operatsiyalar – fintex texnologiyalari orqali xalqaro pul o'tkazmalari va to'lov xizmatlari tez va arzon amalga oshiriladi. Masalan, blockchain texnologiyasidan foydalangan holda xavfsiz tranzaksiyalar amalga oshiriladi.

Uchinchidan, xarajatlarni keskin kamaytirish– Raqamli infrastrukturalar, texnologiyalar xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirib, foydalanuvchilarga arzon va qulay moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi.

To'rtinchidan, innovatsion mahsulot va xizmatlar taklif eta oladi, ya'ni fintex kompaniyalari doimiy ravishda yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqib, mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashib boradi. Sun'iy intellekt (AI), tahliliy vositalar va ma'lumotlarni avtomatlashtirish kabi texnologiyalar mijozlarga alohida maxsus yechimlarni taklif qilish imkonini beradi.



2-rasm. Global fintex sanoatidagi o'sish darajasi (Shimoliy Amerika miqyosida)

Manba: McKinsey research ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
<https://www.digipay.guru/blog/the-impact-of-fintech-on-banks-and-financial-services/>

Xalqaro moliyaviy bozorlar tobora ko'proq fintex xizmatlariga murojaat qilmoqda. Bu xizmatlar quyidagi sohalarida katta o'rin tutmoqda:

- Raqamli to'lov tizimlari – PayPal, Stripe, WeChat Pay kabi kompaniyalar xalqaro

⁴ <https://www.custommarketinsights.com/press-releases/fintech-technologies-market-size/>

tranzaksiyalarni soddalashtiradi;

- Kraufanding platformalari – Kickstarter, GoFundMe kabi platformalar orqali kichik bizneslar va startaplar oson moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Blockchain va kriptovalyutalar – Xalqaro bozorda Bitcoin, Ethereum kabi kriptovalyutalar orqali tezkor va xavfsiz operatsiyalar amalga oshirilmoqda.

Fintexning xalqaro ahamiyatini ko'rsatadigan statistikalariga nazar tashlaydigan bo'lsak:

- AQShda 2024-yil yanvar holatiga ko'ra taxminan 13 100 ta⁵ fintex kompaniyasi mavjud bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 1 500 taga ko'proqdir.


1-jadval

2024-yil Fintex sohasidagi daromadlar ko'rsatkichi⁶

Mamlakat nomi	Daromad miqdori (mlrd \$)
Amerika	66,3
Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika (EMEA)	30,5
Osiyo-Tinch okeani mintaqasi	101
Jami	197,8

McKinsey⁷ ma'lumotlariga ko'ra, fintex sanoati daromadlari an'anaviy bank sektoriga qaraganda deyarli 3 baravar tezroq o'sishi kutilmoqda. Fintex sohasi o'tgan o'n yillikning ikkinchi yarmida rekord darajada kapital jalb qildi. 2015-yilda venchur kapital (VC) investitsiyalari 19,4 milliard dollar bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 33,3 milliard dollarga yetdi, 2025-yilda esa o'rtacha 17 mlrd dollar o'sishni anglatadi.

Bundan tashqari, bitimlar (investitsiya kelishuvlari) soni ham oshdi – ushbu davr ichida bitimlar soni 1,2 baravar ko'paydi.



3-rasm. Fintex sohasi 2015-2025-yillar doirasida jalb qilgan venchur kapital (VC) miqdori⁸ (Shimoliy Amerika va Yevropa miqyosida)⁹

⁵ <https://www.statista.com/statistics/893954/number-fintech-startups-by-region/>

⁶ <https://www.digipay.guru/blog/the-impact-of-fintech-on-banks-and-financial-services/>

⁷ <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/fintechs-a-new-paradigm-of-growth>

⁸ McKinsey & Company researchs ma'lumotlariga asosam muallif tomonidan tayyorlandi.

<https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/fintechs-a-new-paradigm-of-growth>

⁹ <https://www.digipay.guru/blog/the-impact-of-fintech-on-banks-and-financial-services/>

Xulosa va takliflar.

Bulardan ko'rinadiki fintex xizmatlarining kelajakda xalqaro bozordagi rivoji yanada innovatsion va raqamli ekotizimga aylanishda davom etadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalarining rivojlanishi bilan moliyaviy xizmatlar yanada shaffof, xavfsiz va samarali bo'ladi. Shuningdek, regulyatorlar tomonidan fintex xizmatlarini tartibga solish choralari kuchaymoqda, bu esa sohaning yanada ishonchli rivojlanishini ta'minlaydi.

Fintexning rivojlanish tendensiyasi bank sektorining modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon davom etar ekan, banklar va fintex kompaniyalari o'rtasida hamkorlik, innovatsiyalarni joriy etish va regulyatorlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali moliyaviy xizmatlar sifatini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, blokcheyn, va mobil to'lovlar bank xizmatlarini yanada qulay va samarali qilishga yordam beradi. Fintex kompaniyalari mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish orqali banklarning raqobatbardoshligini yanada oshiradi. Shuningdek, onlayn va mobil bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi tijorat banklariga o'z xizmatlarini kengaytirish va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, fintex sanoati iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatib, an'anaviy moliyaviy xizmatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali samaradorlikni oshirish va global moliyaviy tizimni yanada inklyuziv qilish yo'nalishida rivojlanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy innovatsiyalarning kelajakda yanada tez sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

- Abdurahmonov, A. (2022). *The role of Islamic fintech in promoting financial democracy in Central Asia*. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6502435>
- Allayarov, A., & Ravshanova, M. (2024). *The impact of fintech startups on innovation and security stability in the Uzbek banking system*. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 11(1), 45–57. <https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/3017>
- Anagnostopoulos, I. (2018). *Fintech and regtech: Impact on regulators and banks*. *Journal of Economics and Business*, 100, 7-25.
- Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2015). *The evolution of fintech: A new post-crisis paradigm?* University of Hong Kong Faculty of Law Research Paper No. 2015/047.
- Elasrag, H. (2020). *Islamic Fintech: Opportunities and Challenges*. MPRA Paper No. 101567.
- Frost, J. (2020). *The economic forces driving fintech adoption across countries*. Bank for International Settlements Working Papers No. 838. <https://www.bis.org/publ/work838.htm>.
- Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. Wiley Finance.
- Kumari, P., & Devi, S. (2022). *Blockchain and fintech: Transforming digital banking services*. *International Journal of Innovative Research in Technology*, 8(2), 102–108.
- Nozimova, N. (2024). *Fintech and its influence on financial inclusion and economic growth in Uzbekistan*. *Academic Global Innovation Review*, 3(2), 88–99. <https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/1599>.
- Puschmann, T. (2017). *Fintech*. *Business & Information Systems Engineering*, 59(1), 69–76. <https://doi.org/10.1007/s12599-017-0464-6>.
- Qayumova Husnora. *Fintech kompaniyalari va an'anaviy Banklar o'rtasidagi raqobat va Hamkorlik*. *Journal of Economy, Tourism and Service*. Vol. 3, No. 08, 2024 ISSN:2181-435X.46-50.

Sardorbek, Murtozaev. "Uzbekistan's position in international ranking and indices evaluating state institutional quality as a key determinant for foreign direct investment." *Science and innovation 2. Special Issue 13* (2023): 508-514.

Tatjana Vasiljeva; Kristina Lukanova, *Commercial banks and fintech companies in the digital transformation: challenges for the future.*-2016.-146.

Technovation. (2023). The rise of fintech: A cross-country perspective. *Technovation*, 122, 102665. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2022.102665>.

Осиповская А.В., Михайлин А.В. Развитие финансовых технологий в сфере банковских услуг: основные направления // Молодой ученый. – 2017. – № 26 (160). – С. 124- 127.